



**BIR SO‘Z TURKUMNING BOSHQA SO‘Z TURKUMI VAZIFASIDA
KELISHI VA KO‘CHISH HODISASI**

Abralova Zarnigor Jurabek qizi

*SamDCHTI Sharq tillari fakulteti O‘zbek tili va
adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘z turkumlarining o‘zaro ko‘chishi, transpozitsiya hodisasi, birlamchi va ikkilamchi vazifalarning farqlanishi, shuningdek o‘zbek tilshunosligida mazkur jarayon bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, turli so‘z turkumlariga mansub birliklarning ot, sifat va ravish vazifasiga o‘tish holatlari misollar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: transpozitsiya, birlamchi vazifa, ikkilamchi vazifa, ot, sifat, ravish, son, ravishdosh, sifatdosh, adverbializatsiya.

Biz bilamizki, til taraqqiyoti jarayonida so‘z turkumlarining funksional imkoniyatlari doimo kengayib boradi. So‘zlar faqat o‘zining dastlabki, ya’ni birlamchi vazifasida emas, balki nutq ehtiyojiga ko‘ra boshqa vazifalarda ham qo‘llanadi. Bu jarayon tilshunoslikda so‘z turkumlarining ko‘chishi sanaladi.

Transpozitsiya lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, transposition – “o‘rin almashtirish” degan ma’noni anglatadi. Azim Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” kitobida shunday ta’rif beriladi: “Grammatik kategoriyalarning o‘ziga xos bo‘lmagan vazifada qo‘llanishi”²⁶. Bu fikrdan kelib chiqib, aytish mumkinki, tilshunoslikda so‘zlarning dastlabki grammatik yoki sintaktik roldan chiqib, boshqa bir so‘z turkumi yoki sintaktik vazifaga o‘tish jarayoni transpozitsiya hodisasi sanaladi. Transpozitsiya nazariyasi dastlab fransuz tilshunosi Sharl Balli tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsa, keyinroq esa uning individual jihatlarini O.Jespersen, A.Seshe va L.Tennierlar o‘rgandilar.²⁷

O‘zbek tilshunoslaridan A.K.G‘ulomov birinchilardan bo‘lib so‘z turkumlarining ko‘chish mavzusini o‘rganishga kirishdi va 1945-yilda “O‘zbek tilida adverbializatsiya masalasiga bag‘ishlangan” maqolasini e’lon qildi. Keyinchalik so‘z turkumlari ko‘chishi muammosining turli jihatlarini Z.S. Isaqov,

²⁶ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. -Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. - B.109.

²⁷ Kubryakova E. S. Derivatsiya, transpozitsiya, konvertatsiya // Tilshunoslik. 1974. - No 5. - S. 64–76.



A.E. Botirova, A.B. Pardaev, S. Mamatqulov, A. Begmatova, I.I. Rasulov²⁸ va boshqa o'zbek olimlarining ilmiy asarlarida ko'rib chiqilgan.

Umuman olganda, so'z turkumlarining funksional imkoniyatlari doimiy ravishda o'zgarishi tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Bu masala yuzasidan ham ko'plab olimlar tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Jumladan, so'z turkumlari funksional imkoniyatlarining kengayishi, bu jarayonda birlamchi va ikkilamchi vazifalarning farqlanishi hamda uning nazariy asoslarini yaratish masalasi hali hanuz yetarlicha o'rganilmagan masalalardan biri bo'lib, tilshunos olim E.Kurilovich tomonidan o'tgan asrning o'rtalarida o'rganilgan. Olimning fikricha, bitta so'z qaysi so'z tukumi doirasida faol qo'llanilishiga ko'ra birlamchi va ikkilamchi vazifalarga bo'linadi.²⁹ Masalan, *quralay* so'zini oladigan bo'lsak,

Quralay 1: kiyik yoki ohularning yosh bolasi

Quralay 2: ko'zlari jigarga moyil

Yoki,

Charos 1: ertapishar, yumaloq qora uzum.

Ichkari hovli keng, gulzor, baland so'riga ko'tarilgan toklar. Charos, husayni uzumlar g'arq pishib, boshlari osilib turibdi. (Y. Shamsharov, Toshqin.)

Charos 2: go'zal qop-qora ko'z

Yulduzxon charos ko'zlarini ohista ochdi.

Charos 3; ayollar ismi

Charos xonaga shoshib kirdi-yu, qaytib chiqib ketdi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki, *quralay* so'zi sifat so'z turkumi vazifasida birlamchi, ot so'z turkumi vazifasida ikkilamchi vazifani bajarmoqda. *Charos* so'zi esa ayollarning ismi va belgi sifatida ishlatilganida birlamchi, uzum ma'nosida esa ikkilamchi vazifani bajarmoqda.

Bundan tashqari, boshqa turkumdagi so'zlarning ot vazifasida qo'llanilishi, masalan, turdosh otlarning atoqli ot vazifasida kelishi: *Rayhon, Asal, Po'lat, Gavhar, Quvonch, Nilufar, Umid*; sifatning atoqli ot vazifasida kelishi: *Shirin, Ozoda, Botir, Go'zal*; fe'lning atoqli ot vazifasida kelishi: *Tursunboy, Sotiboldi*; sonning atoqli ot vazifasida kelishi: *Oltmishvoy, Yetmishvoy*.

Boshqa turkumdagi so'zlarning sifat vazifasida qo'llanilishi: *ko'p kitob*

²⁸ Tulumov A.K. O'zbek tilida adverbializatsiya masalasi haqida // Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti ilmiy yozuvlari. Filologik to'plam. 2-son. — Toshkent: Gosuchpediz, 1954. — 3–15-betlar

²⁹ Kurilovich E. O'zbek tilida so'z turkumlarining birlamchi va ikkilamchi vazifalari. 1962. 58-59



(ravish sifat o'rnida kelgan va predmetning belgisini ifodalagan) sifatlar ot o'rnida qo'llanganligi kabi boshqa so'z turkumidagi so'zlar ham sifat o'rnida qo'llanilishi mumkin. Ko'pincha, otlar ko'chma ma'noda yoki emotsional-ekspressiv ma'nolarni ifodalash uchun predmet belgisi vazifasida ishlatiladi. Masalan, *zahar odam, tilla bola, shakar qiz, kumush qish* kabi. Bu yerda *zahar, tilla, shakar, kumush* so'zlari ot so'z turkumiga tegishli, ammo yuqorida keltirilgan so'z birikmalarida sifat vazifasini bajarmoqda.

Sifatdoshlar belgi ma'nosini ifodalab, sifat vazifasida qo'llanadi: *kelishgan yigit, kelishmagan qiliq, o'qigan bola, oqar daryo* kabi;

Ravishlar sifat vazifasida qo'llanilishi mumkin: *Ruscha kitob, oqilona maslahat, tez odam*.³⁰

Agar u anjumanda *ruscha* gapirdi gapini oladigan bo'lsak, bu yerda *ruscha* so'zi ravish vazifasini bajarmoqda va bu so'z *rus+cha* shakli orqali yasalgan, ammo *ruscha kitob* birikmasida predmetning belgisini bildirib, sifat vazifasini bajarmoqda.

Boshqa turkumdagi so'zlarning ravishga ko'chishi ham mumkin. Ravishga ko'chish birdan va tasodifan bo'lmay, balki yangi sifat elementlarining asta-sekin va uzoq vaqt davomida to'plab borishi bilan so'zda yangi leksik-grammatik xususiyatlarning voqe bo'lishi natijasida yuzaga keladi. Bunday so'zlarda ravishga xos xususiyat turg'un va doimiydir. Ravishga ko'chgan otlar: *erta, indin, kecha, kech, kechqurun, burun* kabi. Ular bugungi kunda to'la-to'kis ma'nosi bilan ravishga aylanib qolgan. *Kecha juda ham oydin. Kecha men darslarga borolmadim*. Keltirilgan misollarni tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi gapda *kecha* so'zi ot vazifasida, ikkinchi gapda *ravish* vazifasida kelgan.

Ravishga ko'chgan sifatlar: *yaqqol, baralla, tugal, bafurja, mutassil, vaqtli(vaxli), rosa, baravar, uzluksiz, omonsiz, beomon, o'zgarishsiz, harakatsiz, beto'xtov, uzoq, yaqin* kabi so'zlar.³¹

Tilimizda shunday sifatlar borki, gapda ravish bajargan vazifani bajaradi va gapni sintaktik jihatdan tahlil qilganimizda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan,

Ular uzoq yo'lni bosib o'tishdi - sifat

Ular uzoqda yashaydi - ravish

Nizomjon o'sha kuni allaqanday lanj kayfiyat bilan uyga qaytdi.

³⁰ O'zbek tili grammatikasi 1-tom. O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi A. S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti. Toshkent-1975

³¹ O'zbek tili grammatikasi 1-tom. O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi A. S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti. Toshkent-1975



Akbarali uyqudan lanj uyg'ondi. (Said Ahmad "Ufq")

Ushbu misollar orqali shuni anglashimiz mumkinki, agar belgini bildiruvchi so'zlar otga bog'lanib, ularning belgisini bildirsa sifat, aksincha, fe'lga bog'lanib ish harakatning belgisini bildirib kelsa, ravish vazifasini bajaradi.

Ravishga ko'chgan ravishdoshlar: *osha, o'ta, qiya, qiyo, qayta* kabi.

Misol uchun, *U qurg'urlar sa'vani qo'ltiqqa solib, **ura** qochishsa bo'ladimi!*

*Manmanlikdan **osha** bizni xoritdi.*

Xulosa sifatida shuni anglash mumkinki, so'z turkumlarining o'zaro ko'chishi til taraqqiyotining tabiiy jarayonidir. Transpozitsiya natijasida so'zlar yangi vazifa, yangi grammatik imkoniyat va qo'shimcha ma'no kasb etadi. O'zbek tilida so'zlarning ot, sifat va ravish vazifalariga o'tishi ko'p uchraydi va nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Mazkur hodisani o'rganish tilning ichki qonuniyatlarini aniqlash, so'zning semantik va grammatik tabiatini chuqurroq tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002- B 109.
2. Kubryakova E. S. Derivatsiya, transpozitsiya, konvertatsiya // Tilshunoslik. 1974. - No 5. - S. 64–76.
3. Tulumov A.K. O'zbek tilida adverbializatsiya masalasi haqida // Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti ilmiy yozuvlari. Filologik to'plam. 2-son. — Toshkent: Gosuchpediz, 1954. — 3–15-betlar
4. Kurilovich E. O'zbek tilida so'z turkumlarining birlamchi va ikkilamchi vazifalari. 1962. 58-59
5. O'zbek tili grammatikasi 1-tom. O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi A. S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti. Toshkent-1975
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/tilshunoslikda-transpozitsiya-hodisasi-va-uning-dariy-tilida-o-rganilishi>